

**MAHALLA ORGANLARI TOMONIDAN O‘TKAZILADIGAN MA’NAVYI-
MA’RIFIY ISHLARNING VOYAGA YETMAGANLAR UCHUN
PROFILAKTIK AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI**

Yulchixonov Qudratxo‘ja Abdumajit o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqola mahalla organlarining voyaga yetmaganlar tarbiyasi va ularni ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishdagi o'rni, ushbu jarayonning ijtimoiy va profilaktik jihatlari hamda amaliy natijadorligini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada mahalla organlarining faoliyatini tartibga soluvchi zamonaviy huquqiy asoslar, ijtimoiy va ilmiy yondashuvlar asosida mavzuga oid bilimlar o'rganilib, mahalla organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiylar berilgan.

Kalit so‘zlar: Mahalla organlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, voyaga yetmaganlar, tarbiya, huquqbuzarliklarining profilaktik ahamiyati, oilaviy muhit, yoshlar tarbiyasi, bolalar huquqlari, mahalla tizimi, ijtimoiy hamkorlik.

KIRISH

Jamiyat barqarorligi va farovonligi, avvalo, yosh avlodning sog'lom, bilimli va ma'naviy yuksak shaxs bo'lib voyaga yetishi bilan bog'liq. Ushbu jarayonda nafaqat davlat, balki mahalla organlarining ham beqiyos hissasi mavjud. Mahallalar azaldan xalqimizning ijtimoiy hayotida muhim institut bo'lib kelgan. Shu boisdan, davlat tomonidan mahalla tizimini rivojlantirish, ayniqsa, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ularning rolini oshirish uchun keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmogda.

Mahalla – O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy tizimida muhim o‘rin tutgan, aholining ma'naviy, ijtimoiy va huquqiy savodxonligini oshirishda asosiy rol o‘ynaydigan tizimdir. U nafaqat hududiy xizmatlar ko'rsatish, balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy muhitini shakllantirishda ham asosiy bo'g'in hisoblanadi. Mahalla organlari tomonidan o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga voyaga yetmaganlarni tarbiyalash, ularning ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish, huquqbuzarliklarni oldini olish va boshqa salbiy ijtimoiy ta'sirlarni bartaraf vositasi sifatida katta ahamiyat qaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich o‘z chiqishlarida ta’kidlaganidek: *“Mahalla – bu xalqimizning hayoti, jamiyatimizning mustahkam asosi va yoshlarga tarbiya beradigan muhim maskandir”*.¹ Ushbu

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. (2021-yil, 18-mart). Mahalla tizimini yanada rivojlantirish va unga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish to'g'risida yig'ilishdagi nutq. <https://president.uz>

yondashuvdan kelib chiqib, mahalla organlarining voyaga yetmaganlar uchun o‘tkazadigan ma’naviy-ma’rifiy ishlari jamiyatda profilaktika vazifasini ham bajaradi.

Mahalla organlarining faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjatlar.

Mahalla organlari voyaga yetmaganlar bilan ishlashda muayyan huquqiy asos va tartibga ega. Bu faoliyatni quyidagi zamonaviy normativ-huquqiy hujjatlar belgilab beradi:

1. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** – 50-moddaga muvofiq, har bir fuqaroning ta’lim olish huquqi davlat tomonidan kafolatlanadi. Shu asosda mahalla organlari yosh avlodni tarbiyalashda o‘z ulushini qo‘shadi .

2. **“Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun** – ushbu qonunning 2-bobida yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar, ularning hamkorlikda ish olib borishi, shuningdek, mahalla organlarining yoshlarga oid tarbiya va huquqni himoya qilishdagi ishtiroki mustahkamlangan.

Jumladan, mahalla tizimi yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda kam ta‘minlangan oilalardan bo‘lgan yosh fuqarolarga qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatishi, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularning jamiyat hayotidagi roli va faolligini oshirishga, sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalashga, oilada ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rishi, yoshlarni tarbiyalash masalalari yuzasidan ta‘lim muassasalari va boshqa muassasalar bilan hamkorlik qilishi belgilangan.

3. **“Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun** – ushbu qonunning 6-moddasiga muvofiq, mahallalar voyaga yetmaganlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda faol ishtirok etishi shart ekanligi ko‘rsatilgan.

Unga ko‘ra, “fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishda va himoya qilishda ko‘maklashadi, bolaga yoki uning qonuniy vakiliga huquqiy, uslubiy, axborotga oid va boshqa yordam ko‘rsatadi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlari va hududiy dasturlarni ishlab chiqishda hamda ro‘yobga chiqarishda ishtirok etishi hamda bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga doir vakolatlarni amalga oshirishda davlatdan va xalqaro tashkilotlardan uslubiy, tashkiliy va moliyaviy yordam olishi mumkin.”²

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 07.01.2008 yildagi O‘RQ-139-son. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”

4. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori** – bu hujjat voyaga yetmagan bolalarning sog‘lom oilaviy muhitda tarbiya topishini ta‘minlashda mahallalarning o‘rnini aniq belgilab beradi.

Mahalla organlari faoliyatining ma'naviy-ma'rifiy jihatlari.

Mahalla organlari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etilishi yosh avlodni jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, ularning intellektual va axloqiy rivojlanishiga ko‘mak beradi. Bu faoliyat quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Ma'rifiy tadbirlar orqali tarbiya.

Voyaga yetmaganlarni O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatiga oid seminarlar, sayohatlar, ko‘rgazmalar orqali tarbiyalash mahalla faoliyatida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, kitobxonlikni targ‘ib qilish, taniqli shaxslar bilan uchrashuvlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Bu borada “Yoshlar daftari” dasturi orqali uyushmagan yoshlar uchun tashkil etilayotgan tadbirlar ijobiy natija bermoqda .

2. Bolalar huquqlari va huquqiy savodxonlikni oshirish.

Huquqiy ma'rifat mahalla organlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, mahallalarda voyaga yetmaganlar uchun “Bola huquqlari” mavzusida treninglar va o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilib, ularda voyaga yetmaganlarning o‘z huquqlari va burchlarini anglashiga alohida e‘tibor qaratiladi.

3. Oilaviy muhitning mustahkamligi.

Oila – bolaning ilk tarbiya maskani. Shuning uchun mahalla organlari oilalar bilan yaqindan hamkorlik qilishi, muammoli oilalarni aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘radi. Misol uchun, “Ayollar daftari” va “Temir daftar” kabi tashabbuslar orqali voyaga yetmaganlarning turmush sharoitini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mahalla organlarining profilaktik faoliyati.

1. Voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish.

Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, mahallalar tomonidan muntazam amalga oshiriladigan profilaktik chora-tadbirlar voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan:

- Toshkent viloyatining Zangiota va Bekobod tumanlarida 2023-yilning fevral-aprel oylarida mahalliy hokimiyat va viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi hamkorligida tashkil etilgan “Tarbiyaviy maslahat kunlari” loyihasining smarali natijasi tufayli yil yakuni bo‘yicha jinoyatchilik darajasi 15 foizga kamaygan.

- Samarqand viloyatida 2022-yilda Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan "Kitobxon bolalar" loyihasi orqali viloyatda yoshlarning kitobxonlik darajasi 30% ga oshgan va ular o‘rtasidagi jinoyatchilik darajasi esa 18% ga kamaygan.

• Psixolog va sotsiologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda mahalla faollarining “insoniy yondashuvi” samaradorlikni oshiradi.

2. Psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Mahallalar o‘z hududlaridagi muammoli oilalar va voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko‘rsatish orqali ularning sog‘lom rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Misol uchun, Samarqand viloyatida tashkil etilgan “Psixologik yordam markazlari” bolalar orasidagi stress va tajovuzkorlikni kamaytirishga xizmat qilmoqda .

Samaradorlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar:

Mahalla organlari faoliyatini yanada samarali qilish uchun quyidagi takliflar kiritiladi:

1. Har bir mahallada bolalar uchun maxsus "Ma'naviyat maskani"ni tashkil etish.
2. Mahallalarda ota-onalar uchun tarbiya bo‘yicha muntazam seminarlar o‘tkazish.
3. Bolalar huquqlarini himoya qilishga oid mahalliy qonunlarni xalqaro tajriba bilan uyg‘unlashtirish.

XULOSA

O‘zbekiston sharoitida mahalla organlari tomonidan o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning huquqiy va ijtimoiy jihatlari jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, yoshlarni axloqiy tarbiyalash, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va fuqarolarni jamiyatga to‘liq moslashishiga katta hissa qo‘shadi. Mahalla organlari nafaqat aholi uchun yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy institut sifatida, balki milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi, huquqiy va ma’naviy ongni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning huquqiy va ijtimoiy faoliyati jamiyatning mustahkamlanishiga, fuqarolar o‘rtasidagi ishonch va birdamlikni oshirishga xizmat qiladi.

Mahalla organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar voyaga yetmaganlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shmoqda. Bu ishlarning profilaktik ahamiyati jamiyat barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo‘lib, yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada keltirilgan qonuniy va amaliy asoslar ushbu yo‘nalishda yanada faolroq ishlash zarurligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (1992). O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2016). Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonun. Qonun hujjatlari to‘plami, 2020-yil 23-oktabr, № LRU-406. <https://lex.uz>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaror. PF-209-sonli qaror, 21-dekabr. <https://lex.uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). “Bolalar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun. Qonun hujjatlari to‘plami, № LRU-595. <https://lex.uz>
5. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
6. Samarqand viloyati hokimligi. (2023). “Psixologik yordam markazlari faoliyati bo‘yicha hisobot”. Samarqand viloyati axborot markazi.
7. UNICEF. (2021). Bolalar huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekistondagi ijtimoiy dasturlar. <https://www.unicef.org>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. (2021-yil, 18-mart). Mahalla tizimini yanada rivojlantirish va unga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish mavzusiga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutq. <https://president.uz>